


**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**60411300 - *Biznesni boshqarish (barqaror biznes)* bakalavriat ta'lim  
yo'nalishining malaka talablari**

**Toshkent**



## **ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 4 » 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60411300 - <i>Biznesni boshqarish (barqaror biznes)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi .....	4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. 60411300 - <i>Biznesni boshqarish (barqaror biznes)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60411300 - <i>Biznesni boshqarish (barqaror biznes)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. 60411300 - <i>Biznesni boshqarish (barqaror biznes)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60411300 - <i>Biznesni boshqarish (barqaror biznes)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. 60411300 - <i>Biznesni boshqarish (barqaror biznes)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60411300 - <i>Biznesni boshqarish (barqaror biznes)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60411300 - <i>Biznesni boshqarish (barqaror biznes)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.4. Kvalifikatsiya.....	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i .....	11

## **1. 60411300 - *Biznesni boshqarish (barqaror biznes)* bakalavriat ta'lim yo'nalishining tavsifi**

**60411300 - *Biznesni boshqarish (barqaror biznes)*** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60411300 - *Biznesni boshqarish (barqaror biznes)* ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi *60411300 - Biznesni boshqarish (barqaror biznes)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari (sillabus)ni ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalar va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60411300 - *Biznesni boshqarish (barqaror biznes)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

##### **1.2.1. 60411300 - *Biznesni boshqarish (barqaror biznes)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60411300 - *Biznesni boshqarish (barqaror biznes)*** – “Biznes, boshqaruv va huquq” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, barqaror biznesni tashkil etish va yuritish, qayta tiklanuvchi energiya tarmoqlari, muqobil energiya tarmoqlari, kam uglerodli energiya manbalari, chiqindilarni qayta ishlash sohasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqarorlikka erishish, atrof-muhitga insoniyatni ta'sirini kamaytirish, sohalarning xo'jalik yurituvchi subyektlari, moliya, kredit va sug'urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy, moliya, marketing, biznes, ishlab chiqarish – iqtisodiy va tahlil xizmatlarini o'z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalarni rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 60411300 - *Biznesni boshqarish (barqaror biznes)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalarining biznesni tashkil etish tarmoqlari, barqaror biznesga erishish sohalari, qayta tiklanuvchi energiya, muqobil energiya hamda kam uglerodli energiya ishlab

chiqarish sohalari, atrof muhitga korxonalar va tashkilotlarning ta'sirini kamaytirish jarayonlari, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish, korxonalarining biznes sohasida raqobatbardoshligini oshirish jarayonlari;

- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalarda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari;

- firma va kompaniyalar, shuningdek, turli mulk shaklidagi korxonalarini boshqarish, ilmiy tadqiqot muassasalari va mahalliy davlat organlarida iqtisodiy faoliyatni ta'minlash;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari.

**60411300 - Biznesni boshqarish (barqaror biznes)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriyatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

**1.2.3. 60411300 - Biznesni boshqarish (barqaror biznes) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tashkiliy-boshqaruv.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;
- axborot-tahiliy faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tadbirkorlik faoliyati.

**1.2.4. 60411300 - Biznesni boshqarish (barqaror biznes) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

**60411300 - Biznesni boshqarish (barqaror biznes)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- "Barqaror biznes" ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalarni tahlil qilish;

- texnologik modernizatsiya va "yashil" texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- barqaror biznesning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlash;

- iqlim o'zgarishiga doir masalalarda davlat xizmatlari qamrovini kengaytirish, barqaror biznes sohasida aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali aholi va mahalliy jamoatchilik ishtirokini kengaytirish;

- energiyani tejaydigan texnologiyalarning kirib kelishini kengaytirish, soliq va bojxona imtiyozlari berish hisobiga qayta tiklanuvchi manbalardan energiya hosil qiluvchi uskunalarni qo'llagan holda energiyadan foydalanishni rag'batlantirish;

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qilishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda meyoriy-huquqiy hujjatlar;

- rejalashtirish ishlarini tashkil etish;

- xo'jalik yurituvchi subyektini xo'jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribasini o'rganish;

- ishlab chiqarishni texnologik asoslarini bilish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo'jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish;

- mehnatni muhofaza qilish meyor va qoidalariga amal qilish.

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ishini tashkil qilish va uni boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favquloddasodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy xizmat bo'linmalarini tashkil etish;

- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

- pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

- qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilot faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

- loyihalar samaradorligini baholash;

- mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, meyorlari va talablari asosida tahlil qilish;

- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar ko'rsatkichilari o'zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;
- tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash.

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda iqtisodiyotning dolzarb yo'nalishlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalarga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;
- tarmoqlar va sohalar bo'yicha korxonalaridagi muammolar mavzulari bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Tadbirkorlik faoliyatida:**

- barqaror biznes loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish;
- barqaror energiyaga erishish bo'yicha biznes g'oyalarni shakllantirish;
- tabiiy resurslarni tejagan holatda iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida biznes rejalarni ishlab chiqish;
- yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;
- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- o'z biznesini yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. 60411300 - *Biznesni boshqarish (barqaror biznes) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar***

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikrlashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish,

saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarishni tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda korxonalar (tashkilot)ni rivojlantirish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ijodiy fikrlash, muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;

- korporativ axborot tizimlarini, moliyaviy-iqtisodiy tahlil va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- strategik va operatsion rejalashtirish, ishni samarali tashkil etish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;

- iqtisodiy o'sish, strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- aktivlarni baholash, aylanma mablag'larni boshqarish, dividend siyosati va kapital tuzilmasini shakllantirishda moliyaviy boshqaruvning asosiy usullarini qo'llay bilish;

- makroiqtisodiy muhitni, bozor va unga xos xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatiga ta'luqli qarorlarni qabul qilishda, ularni aniq vazifalarga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- moliyaviy siyosat va tashkilotning moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda moliyaviy buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari va standartlarini, boshqaruv hisobi ma'lumotlari asosida xarajatlarni boshqarish va qarorlarni qabul qilish uquviga ega bo'lish;

- biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

- yangi tashkilotlarni (faoliyat yo'nalishlari, mahsulotlari) yaratish va rivojlantirish uchun biznes rejalashtirish bo'yicha ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

## **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malakaviy amaliyot o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

**2.3.1. 60411300 - Biznesni boshqarish (barqaror biznes) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4320	144
Tanlov fanlar	1800	60
Malakaviy amaliyot	720	24
Yakuniy davlat attestatsiyasi	360	12

**2.3.2. 60411300 - Biznesni boshqarish (barqaror biznes) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>4320</b>	<b>144</b>	
1.01	APPMAT12	Amaliy matematika	360	12	1, 2
1.02	ECOTHE12	Iqtisodiyot nazariyasi	360	12	1, 2
1.03	ICTECO6	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	180	6	1
1.04	FORLAN10	Xorijiy til (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	300	10	1, 2
1.05	LANGUA4	O'zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	HISSET4	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	120	4	1
1.07	PHILOS4	Falsafa	120	4	1
1.08	MRHUZ4	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.09	RELST4	Dinshunoslik	120	4	2
1.10	STATIS6	Statistika	180	6	3
1.11	ECONOM6	Ekonometrika	180	6	4
1.12	SUSBUSF6	Barqaror biznes asoslari	180	6	3
1.13	MICROE6	Mikroiqtisodiyot	180	6	3
1.14	MACROE6	Makroiqtisodiyot	180	6	4
1.15	ENVNRE6	Atrof-muhit va tabiiy resurslar iqtisodiyoti	180	6	3
1.16	ACCBUS6	Biznesda buxgalteriya hisobi	180	6	4
1.17	GREECO6	"Yashil" iqtisodiyot	180	6	3
1.18	GREEN6	"Yashil" energetika	180	6	5
1.19	ENVMEN6	Ekologik menejment	180	6	5
1.20	TAXATI6	Soliq va soliqqa tortish	180	6	6
1.21	SUSECODE6	Barqaror iqtisodiy rivojlanish	180	6	6
1.22	SUSBUSIN6	Barqaror biznes innovatsiyalari	180	6	6
1.23	SUSBUSST6	Barqaror biznes strategiyasi	180	6	8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar (10)</i>	1800	60	4,5,7
		<b>Jami</b>	<b>6120</b>	<b>204</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	720	24	6,8
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	360	12	8
		<b>Jami</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

**2.4. Kvalifikatsiya: iqtisodchi, boshqaruvchi**

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, "yashil" iqtisodiyot, biznesni boshqarish, barqaror bines, barqaror o'sish, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, uqib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, kompetensiya, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kredit-modul tizimi, xizmat ko'rsatish, ijodiy fikrlash, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**

**ISHLAB CHIQLIGAN:**



**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Rektor  **K. Sharipov**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**



Direktor  **SH. Yakubov**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**Toshkent moliya instituti**



Rektor  **T. Teshabayev**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**"Lotos Gold" Qo'shma korxonasi**

Bosh direktor  **Yo. Yuldashev**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**"O'zbekiston iqtisodiyotini  
rivojlantirishning ilmiy asoslari va  
muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi**



Direktor  **M. Kalonov**

202\_ yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

## **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

**60411300 – *Biznesni boshqarish (barqaror biznes)* bakalavriat ta'lim yo'nalishi  
malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim  
muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

### **KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent shahri

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar - Toshkent moliya instituti rektori T. Teshabayev, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori K.Sharipov, “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori M. Kalonov, “Lotos Gold” qo‘shma korxonasi Bcsh direktori Y. Yuldashev birgalikda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

*60411300 – Biznesni boshqarish (barqaror biznes) ta'lim yo'nalishi*

Yuqoridagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablarning ishlab chiqilishida kadrlar iste'molchilari hamda turdosh oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'yilgan talablar inobatga olingan.

Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli, “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi” 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida” 2023-yil 5-iyundagi F-31-son Farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining

“Oliy ta’limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 9-iyundagi 259-son buyrug‘i hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tayyorlangan malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqish bo‘yicha turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda asosiy kadrlar iste’molchilari bo‘lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o‘tkazilib, kelishildi.

Yuqoridagi ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari (sillabus) hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori

  
K. Sharipov

Toshkent moliya instituti rektori

  
T. Teshabayev

TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi direktori

  
M. Kalonov

“Lotos Gold” qo‘shma korxonasi Bosh direktori

  
Yo. Yuldashev